



**SIRDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



SIRDARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI




**2023- yil
yanvar-oktabr**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(yanvar-oktabr)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Xizmatlar sektori murakkab tuzilmaga ega bo'lib, iste'molchilarga har xil turdagi xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlardan iborat.

Ushbu korxonalar va tashkilotlarning faoliyat doirasi ancha keng bo'lib, ular mijozlarga turli xil tovarlar yetkazib beradi (savdo xizmatlari), ularning ishlashini ta'minlaydi (texnik xizmat ko'rsatish) yoki o'zlari xizmatlar ko'rsatadilar (sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqalar).



2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni **13 738** birlikka yetdi. Xizmatlar sohasida **8 971** birligi jalb etilgan bo'lib, bu ularning umumiy sonining **65,3** foizini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil 1- noyabr** holatiga ko'ra xizmatlar sohasidagi mavjud korxonalar va tashkilotlarning ulushi **64,2** foizni yoki **7 910** birlikni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni **1 172** birlikni tashkil etib, jami yangi tashkil etilganlar umumiy sonining **58,5** foizi (**2 002** birlik) darajasida qayd etildi.

Taqqoslash uchun: **2019- yil yanvar-oktabr** oylarida ularning soni **1 296** birlikni tashkil etgan.




Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati ¹⁾	4 936,0	100,0	110,2
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	2 172,4	44,0	107,2
Shirin	66,9	1,3	113,8
Yangiyer	345,6	7,0	108,2
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	433,7	8,8	133,4
Guliston	213,9	4,3	115,4
Mirzaobod	243,6	4,9	106,9
Oqoltin	161,0	3,3	117,0
Sardoba	190,8	3,9	121,4
Sayxunobod	230,5	4,7	123,0
Sirdaryo	631,9	12,8	107,7
Xovos	245,7	5,0	115,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 465,7** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **108,0 %** ni tashkil etdi



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-oktabr)


Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	5 465,7	108,0
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	22 350,1	105,7
Shirin	3 466,3	112,6
Yangiyer	7 322,9	105,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	3 158,5	130,7
Guliston	2 725,2	112,4
Mirzaobod	3 061,0	104,1
Oqoltin	2 911,3	114,8
Sardoba	2 737,2	119,4
Sayxunobod	2 803,9	120,5
Sirdaryo	4 660,0	105,8
Xovos	2 427,6	113,8

Xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(fermer va dehqon xo'jaliklari bundan mustasno)

2023- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy sonining (11 531 birlik) 59,2 foizi yoki 6 832 birligi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatadi.

2023- yil yanvar-oktabr oylarida xizmatlar sohasida faoliyat yuritayotgan yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 116 birlikni yoki ularning umumiy sonining (1 946 birlik) 57,3 foizini tashkil etdi.



—●— 1- noyabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan, birlikda
—●— Yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan, birlikda



2023-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik tadbirkorlik hajmi **2 485,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **50,4** foizni, shu jumladan, **20,6** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida bu ko'rsatkich 1 338,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan. 2018- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 117,7 foizni tashkil etgan.



Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik (2023- yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Kichik tadbirkorlikning hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi, <i>% da</i>	Hududda ko'rsatilgan jami xizmatlarning hajmidagi ulushi, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati	2 485,9	107,7	50,4
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	707,3	108,6	32,6
Shirin	51,7	107,4	77,2
Yangiyer	275,4	111,7	79,7
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	160,1	107,6	36,9
Guliston	138,8	108,2	64,9
Mirzaobod	193,4	107,7	79,4
Oqoltin	103,1	108,4	64,0
Sardoba	117,0	107,5	61,3
Sayxunobod	120,4	107,7	52,2
Sirdaryo	455,2	111,7	72,0
Xovos	163,5	107,6	66,6


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik hajmi **2 485,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. Kichik tadbirkorlik xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **50,4** % ga yetdi. Guliston shahri bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida (**707,3** mlrd. so'm) ulushi **32,6** % ni tashkil etdi. Bunga mazkur hududda ro'yxatdan o'tgan yirik korxonalarining ko'pligi sabab bo'lmoqda.

Shirin shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **51,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi (**66,9** mlrd. so'm) ushbu hududning ulushi **77,2** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	4 936,0	100,0	110,2
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	285,1	5,8	121,9
Moliyaviy xizmatlar	1 632,8	33,1	115,3
Transport xizmatlari	603,4	12,2	104,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>556,5</i>	<i>11,3</i>	<i>103,6</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	134,0	2,7	113,2
Savdo xizmatlari	1 223,3	24,8	107,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	124,6	2,5	104,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	194,6	4,0	111,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	108,5	2,2	102,8
Ijara xizmatlari	75,3	1,5	59,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	117,7	2,4	104,2
Shaxsiy xizmatlar	98,0	2,0	107,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	41,3	0,8	92,6
Boshqa xizmatlar	297,4	6,0	131,4

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.



2019- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 115,0** mlrd. so'mga oshib, **1 632,8** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **33,1** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **115,3** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **93,4** % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar

93,4 %

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3,8 %

Yordamchi moliyaviy faoliyat

2,8 %




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Guliston shahrining ulushi **60,8** foizni yoki **993,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan Shirin shahrida yuqori o'sish sur'ati **158,6** % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʼati, <i>% da</i>	Ulushi, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati	1 632,8	115,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
<i>Guliston</i>	993,5	109,4	60,9
Shirin	12,7	158,6	0,8
Yangiyer	53,8	89,7	3,3
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	115,1	134,4	7,0
Guliston	62,2	138,0	3,8
Mirzaobod	30,1	112,6	1,8
Oqoltin	46,5	135,4	2,9
Sardoba	56,1	150,9	3,4
Sayxunobod	66,6	132,0	4,1
Sirdaryo	136,3	116,3	8,3
Xovos	59,9	138,7	3,7

Transport xizmatlari (yanvar-oktabr)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **603,4** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **104,3** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **12,2** % ni tashkil etdi.


Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **60,0** %.

Taqqoslash uchun: **2022- yilning yanvar-oktabr oylarida** ushbu ko'rsatkich **60,9** % ni tashkil etgan.



Hududlar kesimida transport xizmatlari



Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. soʻmda</i>	Oʻsish surʻati, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati	603,4	104,3
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	151,2	102,5
Shirin	9,8	102,1
Yangiyer	97,3	103,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	22,6	102,5
Guliston	40,2	102,7
Mirzaobod	42,9	102,4
Oqoltin	16,5	102,7
Sardoba	32,7	102,7
Sayxunobod	39,0	132,1
Sirdaryo	110,3	102,8
Xovos	40,9	102,7

Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.


2023- yilning yanvar-oktabr oylarida Sirdaryo viloyatida transport xizmatlari hajmi **88,6** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **603,4** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **104,3** % ni tashkil etdi.

Guliston shahrida ushbu koʻrsatkich **151,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **102,5** % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari (yanvar-oktabr)

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **2023- yilning yanvar-oktabr** oylarida savdo xizmatlari hajmi **560,1** mlrd. soʻmga oshib, **1 223,3** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022- yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʼati **107,6 %** ga yetdi.



Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

4 486 birlik

1- noyabr holatiga koʻra faoliyat koʻrsatayotgan

4 477 birlik

1- noyabr holatiga koʻra kichik tadbirkorlik subyektlari

2023- yilning 1- noyabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **50,0 %** yoki **4 486** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,8 foizi (4 477 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.





68,6 % Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

22,8 % Ulgurji savdo xizmatlari, avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari xizmatlar



8,6 % Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rttdan uch qismini, ya'ni **68,6 %** ni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlarining salmoqli qismi Yangiyer shahrida – **81,8** foizni tashkil etdi. Sayxunobod tumanida bu ko'rsatkich **38,2** foizga yetdi.


Savdo xizmatlarining tarkibi

Hududlar	Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda xizmatlar	Ulgurji savdo xizmatlari	Chakana savdo xizmatlari
Sirdaryo viloyati	8,6	22,8	68,6
<i>shaharlar:</i>			
Guliston	5,5	25,3	69,2
Shirin	6,8	16,4	76,8
Yangiyer	4,2	14,0	81,8
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	6,6	25,1	68,3
Guliston	9,5	9,3	81,2
Mirzaobod	29,9	9,0	61,1
Oqoltin	13,0	13,5	73,5
Sardoba	11,4	14,7	73,9
Sayxunobod	4,3	57,5	38,2
Sirdaryo	6,0	23,4	70,6
Xovos	8,5	27,8	63,7

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)



2023- yiling yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **285,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **5,8 %** ni tashkil etgan.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari aloqa sohasidagi xizmatlarni, shu jumladan telefon, teleks, telegraf, radioeshittirish, elektron pochta, suniy yo‘ldosh, faksimile va boshqalarni ishlatib ovozli ma‘lumot, tasvir va boshqa axborot oqimlarini uzatish xizmatlarini qamrab oladi.


Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi (2023- yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd. so‘mda	O‘shish sur‘ati, % da
Sirdaryo viloyati¹⁾	285,1	121,9
<i>shaharlar:</i>		
Guliston	163,6	125,3
Shirin	3,1	117,0
Yangiyer	7,7	120,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	20,3	117,4
Guliston	12,3	119,6
Mirzaobod	12,4	117,9
Oqoltin	8,1	116,7
Sardoba	10,1	117,7
Sayxunobod	11,9	116,8
Sirdaryo	21,3	117,5
Xovos	14,3	116,5

¹⁾ hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2023- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **194,6** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **111,3** % ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **4,0** %ni tashkil etdi.



“**Ta'lim**” **seksiyasi** kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.



Taqqoslash uchun: 2019- yilning yanvar-oktabr oylarida bu ko'rsatkich **100,3** mlrd. so'mni tashkil qilgan. **2018- yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **108,2** foizni hamda jami hajmidagi ulushi esa **4,5** foizni tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **108,5** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,2** % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **188** birlikni tashkil etdi, shundan **133** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-oktabr, mln. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **69,5** mlrd. so'mga oshib, **134,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **692** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **690** birligi (umumiy sonining **99,7** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-oktabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **124,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5** % ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,8** % ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi


Sirdaryo viloyati ¹⁾		<i>(2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)</i>	
Sirdaryo viloyati ¹⁾	124,6	Sayxunobod t.	5,9
Guliston sh.	48,3	Shirin sh.	4,9
Sirdaryo t.	16,5	Guliston t.	1,9
Yangiyer sh.	10,9	Boyovut t.	1,2
Oqoltin t.	10,1		
Xovos t.	9,6		
Sardoba t.	8,8		
Mirzaobod t.	6,5		

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **41,3** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **0,8 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **92,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-oktabr, mln. so'mda)

Sirdaryo viloyati	41 291,6
Guliston sh.	30 773,2
Sirdaryo t.	1 963,1
Mirzaobod t.	1 745,6
Sardoba t.	1 709,4
Shirin sh	1 575,4
Yangiyer sh.	1 258,7
Guliston t.	1 052,9

Xovos t.	655,8
Boyovut t.	510,4
Oqoltin t.	25,7
Sayxunobod t.	21,4

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 117,7 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,2 % ni tashkil etdi.




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-oktabr)



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **75,3** mlrd. so'mga yetdi. Ushbu xizmatlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **59,8** % ni tashkil etdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,5** % ni tashkil etadi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-oktabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **41,6** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

